



Said Ahmad Hajviyasida Xalqchillik

Jumaniyozova Feruza

Qarshi davlat universiteti

Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Ravshanova Gulruxbegim

Qarshi davlat universiteti

f.f.f.d., dotsent

Anotatsiya

Ushbu maqola serqirra ijodkor, o'tkir qalam sohibi, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad ijodidagi hajviyotning o'rni va hajviy asarlari tahlili va mavzu ko'lamiga qaratilgan. Said Ahmad xalqona ohangdagi hajviyoti alohida ahamiyat kasb etishi ochib berilgan.

Annotation

This article focuses on the role of humor in the work of the versatile artist, sharp-witted writer, Hero of Uzbekistan Said Ahmad, and the analysis and scope of his humorous works. It is revealed that Said Ahmad's humor in a folk tone is of particular importance.

Kalit so'z: hajviyot, xalqona ohang, oddiy xalq, hajviy hikoya, askiya, yumor, mubolag'a, so'z o'yini, xalqchillik, g'ildirak.

Keywords: humor, folk tune, ordinary people, humorous story, askiya, humor, exaggeration, word play, folklorism, wheel.

Said Ahmad serqirra ijodkor bo'lib, uning rang-barang realistik romanlari, xushchaqchaq komediyalari bilan o'zbek adabiyotida alohida mavqega ega. Adabiyotshunoslarimiz ta'kidalganlaridek, Said Ahmad Oybekning psixologik tasvir mahoratini, G'afur G'ulom yumorini Abdulla Qahhorning ixcham va teran fikrlash fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan ijodkordir¹. Adib aynan ijodiy mahoratini hajviy asarlar yaratishda namoyon etgan holda Abdulla Qahhor va G'afur G'ulom an'alarini o'z ijodida davom ettirgan. U ko'plab hajviy hikoya va sahna asarlari yaratdi. U o'z asarlarida so'zdan shunchaki hajviylik yaratibgina qolmay, bu so'zlardan asarning butun mazmunini ochib beruvchi, hajviy ma'no tashuvchi birlik sifatida foydalandi.

"Intelligentni kuldiradigan gap oddiy xalqni kuldirmaydi. Oddiy xalqni kuldiradigan gapni intelligent bachkana deb qaraydi, past nazar bilan qaraydi. Lekin biz viloyatlarga boramiz, ayniqsa, Farg'ona vodiysidagi askiyalarni ko'ramiz. Odamlar yopirilib keladi. Doiraning atrofi stadion loshasiga aylanib ketib qoladi-da, endi. Shundan keyin "Bular ahmoqmi? Yoki bachkana degan intelligent ahmoqmi?" - deb o'ylab qolaman. Shunda bildimki, xalqning o'zining ko'zi bilan ko'rib, so'zi bilan gapirib, eshitish kerak ekan"². Haqiqatan, uning hajviyotida xalqchillik yaqqol namoyon bo'ladi. Ko'pchilik odamlar: uning hajvlariga nisbatan "bachkana", "sayoz"³, deb qarashar hamda jiddiyoq mavzuda hikoya yozishni aytishardi. Bunga u parvo qilmasdi, chunki kulmaslik, o'zini-o'zi rohatdan, huzur-halovatdan tiyish deb hisoblagan.

"Cho'l burguti", "Cho'l shamollari" turkum hikoyalari, "Hindcha o'yin", "Kuchukcha", "Kolbasa qori", "O'rik domla", "G'ildirak" kabi asarlari shular jumlasidandir. Bu hikoyalardagi xalqimizga xos so'z o'yinlari, askiya va mubolag'alar asar tilini nihoyatda jozibador qiladi. Yozuvchining "Begona", "Xanka va Tanka", "Mening do'stim Babbayev"

¹ 6-sinf adabiyot darsligi S.Ahmedov, K.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Toshkent "Ma'naviyat" 2017.185- bet\

² <https://youtube.com/watch?v=bmh2A7lj0Ls&si=DF2QUqKeYGTYYXe1q>.

³ Said Ahmad "G'ildirak" / "Turon zamin" nashriyoti-2024 . 544 bet



kabi hikoyalari jamiyat rivoji uchun to'siq bo'ladigan illatlar, hayotda uchrab turuvchi manmanlik, ig'vogarlik, ko'zbo'yamachiliklar ustalik bilan fosh etiladi. Bundan tashqari "Yelim", "Yo'g'ontepa", "Chuchvara", "Paypoq", "Oshqovoq,2" hikoyalarida yumorga asoslangan kulgi yetakchilik qiladi.

Shunday hikoyalardan biri bo'lgan "G'ildirak" hajviy qissasi bosh qahramoni — Bozorboy Oxunovich, yuqori lavozimli rahbar, "xalq xizmatkori". U tashqi tomondan jiddiy, ishchan, "halol", o'zi haqida feleton chiqib qolmadimikan?, deb gazetalarni sinchkovlik bilan kuzatib boradi. Chunki gazetada poraxo'rlikda ayblanayotganlar haqida maqolalar beriladi va Bozorboy o'z nomi chiqib qolmasmikin, degan xavotirda yashaydi. Kunlardan bir kuni u noma'lum manbadan xat oladi. Unda u poraxo'rlikda ayblanadi - besh kishidan pora olgani sanab o'tilgan. U bu da'volar rostmi, yolg'onmi - bilmaydi, lekin xatdagi gaplar uni qattiq larzaga soladi. Endi Bozorboyning hayoti izdan chiqadi: avvallari ko'rinmaydigan gunohi, qo'rquvi, vijdon azobi uni ichkaridan ezadi. Uning ruhan buzilishi kundan-kunga kuchayadi. Xotini va qizi bilan munosabatlar sovuqlashadi, har bir harakatda unga shubha tug'iladi. Bozorboy gazetani ochganida o'z ismi chiqmasligini umid qilib, baralla "shanba, yakshanba, chorshanba" deb hafta kunlarini sanaydi - go'yo u "urilmagan" kunini nishonlayotgandek. Bu esa uni asta-sekin ruhiy tushkunlik va aqldan ozish yoqasiga olib boradi. G'ildirak" - bu poraxo'rlik, vijdon azobi va insoniy qadriyatlardan yiroqlashish oqibatlari haqidagi achchiq hajviy asar. Bozorboy obrazi orqali yozuvchi inson o'z qilmishining javobgarligidan qocholmasligini, har qanday jinoyat oxir-oqibat fosh bo'lishini va bu jarayon odamni ichidan yemirib bitishini ko'rsatadi.

Bozorboy ruhiy kasalliklar shifoxonasidagi vrachlarga:

-Hoy doktor, g'ildiraklaringizni omonat kassada saqlang?-deb baqirardi.

Bosh vrach "Xo'p-xo'p, albatta, shunday qilaman" deb o'tib ketadi⁴.

Oradan bir oy o'tib bu hangoma gazetada "G'ildirak" nomli felyeton bo'lib bosildi. Bozorboyga bu felyeton o'qib beriladi. U bu felyetonga tushunmaydi. Gazeta o'qilyotganda Bozorboy barmoqlarini bir bir bukib "Shanba, yakshanba, chorshanba.." deb kun sanab o'tirardi. Qahramon gazeta orqali fosh bo'lishdan qo'rqadi, biroq ichki dunyosida o'zini xayoliy boyliklar bilan ovutadi. Ehtimol, u "hozircha hech kim bilmaydi, demak bu pullar menga tegadi", deb o'zini ishontiradi. Aslida esa bu holat uning ruhiy inqirozini anglatadi. U o'zining tubanligidan, hiyla-nayrangidan uyalishi kerak bo'lgan paytda, aksincha, "faqat chiqib qolmasin" degan hadikda yashaydi. Bu xatti-harakatlar orqali Said Ahmad inson psixologiyasidagi dahshatli paradoksni ochadi — odamlar o'z xatolarini tan olishdan ko'ra, ularni yashirishni afzal ko'rishadi. Bozorboyning hafta kunlarini sanashi — bu uning gazetada fosh bo'lishidan qo'rqish odatining ruhiga chuqur singib ketganini ko'rsatadi. U aqldan ozgan bo'lsa ham, ichki xavotir va nafs quliga aylangan ong hali ham gazeta chiqishini kutishda davom etmoqda. Bu holat — nafs va yolg'on ortidan quvgan insonning hatto aqli ketgach ham vijdon azobidan qutula olmasligini ifodalaydi.

"Chuchvara" nomli hajviy hikoyasi yozuvchi tomonidan mohirona tasvirlangan. Hikoya qahramoni Xoliq kabi sodda, nodon, ko'plab joylarda ishlagan bo'lsa-da o'zining loqaydligi, kaltafahmliigi sabab ishlardan haydalgan. Uch yildan beri ishlayotgan paxta brigadasida ham uni tanqid qilishadi. U o'ziga aytilgan so'zlarni shaxsiyatimga tegishdi deb bunday javob qildi:

-Endi menga navbat! Mening sha'nimga juda ko'p nojo'ya gaplarni aytdingiz. Hammasiga javob tayyor; chunonchi, sirkasi suv ko'tarmaydi dedinglar. Nimaga shama qilyotganlaringni bilaman. Uzumchilik zvenosida ishlaganimda sirka solganman. U suv ko'taradimi, yo'qmi o'zim bilaman. Ikkinchi masalaga o'taylik: jo'jani kuzda sanaymiz, dedinglar. Bundan ikki yil oldin parranda fermasini uchma-uch qilib topshirganman. Jo'jasi ham, xo'rozi ham to'ppa-to'g'ri chiqqan. Endi uchinchi masala: chuchvarani xom sanaydi,

⁴ Said Ahmad G'ildirak. Turon zamin nashriyoti. 2024. 544 bet



deysizlar. Mana shu gap menga og'ir botdi. Qani aytinglar-chi, mening chuchvara sanyotganimni kim ko'ripti? Kimning uyiga kirib, chuchvarasiga qo'l tekkizibman? Voobshe, men chuchvara yemayman⁵.

Xoliq asosiy masalani chetga surib, gapni chuchvara tarafiga burib ketadi. Ayonki Xoliq nihoyatda ezma, aytgan gapi to'g'ri yoki noto'g'riligining ahamiyati yo'q, chunki u har doim o'zinikini to'g'ri deb biladiganlar xilidan. Unga gapirish, tushuntirishning ham foydasi yo'qligi ochib beriladi. Bunday insonlar jamiyatga faqat zarar keltiradi, ulardan hamma bezor va qutilishning iloji yo'q. Aynan chuchvaraga urg'u berilishi ham bejizmasdir, ya'ni Xoliqqa o'xshagan insonlar chuchvaradek kichkina ammo sanoqsiz.

“Oshqovoq, 2” yigirma yildan beri piyoda yurmagan, hatto uyining qayerdaligini bilmaydigan Homidjonov hangomasi bayonidir. Homidjonovning uyini topolmay tramvayma tramvay yurib sarson bo'lishi kitobxonni kuldirmasdan iloji yo'q. Oxirida militsioner bilan qoladi. Hattoki xotiniga telefon qilib uyga qaysi avtobusda borish kerakligini so'ray desa, avtomat telefon uchun yonida bir tiyin puli bo'lmaydi. Xalqimizda bir maqol bor: “Odam boshiga ish tushsa, aql kiradi”. Shuningdek uning xayoliga pasportiga qarab bilish fikri keladi. “Oshqovoq, 2” ekanligini biladi va militsioer uning orqasida turganini unga aytadi. U bu joydan qancha o'tgani lekin tanimagani ham kulgili ham ayanchlidir⁶”. Oshqovoq - xalqimiz orasida aqli uncha ishlaymaydigan yoki juda sodda insonlarga nisbatan ishlatiladi. Ma'lumki Homidjonov — zamonaviy jamiyatda xizmatga, qulaylikka o'rganib qolgan, mustaqil hayotdan bexabar, biroq o'zini muhim deb hisoblaydigan tipik rahbar obrazi.

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmadning “G'ildirak”, “Chuchvara” va “Oshqovoq, 2” kabi hajviy hikoyalari o'zbek adabiyotida ijtimoiy muammolarni kulgi vositasida ochib beruvchi yorqin asarlar sirasiga kiradi. Bu hikoyalarda muallif turli obrazlar orqali jamiyatdagi lavozimparastlik, mas'uliyatsizlik, hayotiy ko'nikmalarning yo'qligi, so'z va mazmun o'rtasidagi tafovut kabi illatlarni fosh etadi. Oddiy voqealar, kulgili vaziyatlar, kinoyali dialoglar orqali muallif o'quvchini kuldirar ekan, aslida uni chuqur o'yg'a toldiradi. Ushbu hajviy asarlar Said Ahmad ijodining xalqchil, tanqidiy va o'tkir fikrga boy bo'lganini yana bir bor isbotlaydi. Said Ahmadning hajviy asarlarida xalqchilik asosiy badiiy tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. U o'z hajvlarida xalqning hayoti, turmushi, og'riqlari va kulgili holatlarini bevosita xalqning tili, dunyoqarashi va tafakkuri orqali ifoda etadi. Yozuvchi hajviyotining xalqchilligini uning kulgi madaniyatida xalq og'zaki ijodi unsurlaridan foydalanishi, sodda va jonli tili, hamda muammolarni murakkab falsafaga urmasdan, bevosita kulgi orqali ochib berishi ta'minlaydi. Shu bilan birga, muallif xalq kulgisini qurol sifatida ishlatib, jamiyatdagi illatlarni yumshoq shaklda, biroq chuqur tanqidiy ruhda fosh etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Said Ahmad G'ildirak. Toshkent. Turon zamin nashriyoti, 2024. – B.544.
2. 6-sinf adabiyot darsligi S.Ahmedov, K.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Toshkent. Ma'naviyat nashriyoti. 2017. – B.185.

⁵ . Said Ahmad. G'ildirak. Turon zamin nashriyoti. 2024. 111-bet

⁶ Said Ahmad "G'ildirak" / "Turon zamin" nashriyoti-2024. 544 bet. Oshqovoq ,2 114- bet